

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**6-son (2021-yil, dekabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## **PEDAGOGIK MAHORAT** **Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2021, № 6**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich,, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

**#6. 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL**

Hasan TO'XTAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlar tizimiga nisbatan hurmat hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	131
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Mental arifmetika – maktabgacha yoshdagi bolalarga og'zaki sanashga o'rgatishning noan'anaviy usuli .....	134
Malika JUMAZODA. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari.....	137
Nargiza NURALIYEVA. Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish.....	140
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>143</b>
Shohidaxon YUSUPOVA. O'quvchilarning ijodiy faolligini amaliyotga tatbiq etish: matnni o'rganish va matn ustida ishlashning psixologiyistik xususiyatlari.....	143
Sanobar OLLABERGANOVA, Shaxlo NIYAZMETOVA. O'zbek bolalar folklorining boshlang'ich ta'limda o'qitilishi.....	146
Артиқбай ЕРЕЖЕПОВ. Бақсышылық көркем өнериниң қәлиплесип раўажланыўында жасларды тәрбиялаўдағы орны.....	150
Dilnoza MAMATOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari .....	153
Muxtor RO'ZIYEV. Ta'lim jarayonining uchinchi davri asosida nemis tili darslarini o'tish texnologiyasi. 157	
Nargiza KARIMOVA. Millatlararo aloqalar nazariyasi va amaliyoti .....	160
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH .....</b>	<b>163</b>
Olimnazar BEGALIYEV, Muhammadi ARTIQOV, Abdimo'min QURBONNAZAROV. Ratsional funksiyalarni integrallashning noan'anaviy usullari .....	163
Narzulla BIBUTOV, Aziz XOJIYEV. Materiallar qarshiligi fanining vazifasi va yechimlari .....	171
Lola ISROILOVA. Informatika va axborot texnologiyalari darslarida kompyuter monitoridan foydalanish usullari .....	176
Umidjon HAYITOV. O'qitishda raqamli o'yinlardan foydalanishning ahamiyati .....	180
Kamil MUQIMOV, Dilnoza NOMOZOVA. Fotonika va nanofotonika tushunchalari haqida.....	185
Gulbaxor XUDOYNAZAROVA, Munisa NURMURODOVA, Gulchexra XUDOYNAZAROVA. Kimyo fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarining ahamiyati .....	187
Islom MENGLIYEV. Uglerod molekularining topologik xossalari fanlararo bog'liqlik va axborot texnologiyalarini qo'llash asosida tatqiq etish metodikasi.....	192
Aziz JO'RAYEV. Organik kimyo fanini o'qitishda tayanch bilimlardan foydalanib o'quv-biluv faoliyatida bazaviy bilimlarni rivojlantirish .....	197
Gulhayo SAYFULLAYEVA, Sohibjamol MIRZAQANDOVA. Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini takomillashtirish.....	202
Sanjar MIRZAYEV. Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti masalalarini o'qitish metodikasi (milliy va xorijiy tajriba).....	205
<b>TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI.....</b>	<b>211</b>
Abdulahob MUXITDINOV. Ta'lim jarayoniga 3d texnologiyalarni qo'llash zarurati .....	211
<b>MUSIQIY TA'LIM .....</b>	<b>217</b>
Oblaql XAYITOV. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini xor dirijyorligi faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimi .....	217
Botir DOSIMBEROV. Puflama cholg'ularni inson tarbiyasidagi ahamiyati.....	220
<b>IQTISODIYOT VA TURIZM.....</b>	<b>224</b>
Axror SHERMATOV. Economic stability of business structures in the strategic development of enterprises .....	224
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT .....</b>	<b>227</b>
Komiljon MUXAMMADIYEV. Respublikamiz maktablarida va havo harorati yuqori bo'lgan hududlarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etish .....	227
Abdullo INOYATOV. Keksalarni sog'lomlashtirish muammolarini optimallashtirish .....	230
Laziz NURULLOYEV. Yengil atletika to'garaklarida shug'ullanuvchi 10-11 yoshli bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari .....	233
Alisher IBRAGIMOV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlantirish asoslari .....	239
“Pedagogik mahorat” jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari .....	242

## TA'LIM JARAYONINING UCHINCHI DAVRI ASOSIDA NEMIS TILI DARSLARINI O'TISH TEXNOLOGIYASI

*Ushbu maqolada ta'lim jarayoni uchinchi davri, yani, bilim-malakalarni umumlashtirish davriga mos dars o'tish to'g'risida so'z boradi, shuningdek, maqolada 6-sinf nemis tili darslarida shu texnologiya asosida dars o'tish to'g'risida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, markaziy davrlaridan biri, bilimlarni umumlashtirish, dasturlashgan topshiriq, trenirovka, bilimlar tizimi, o'quv topshiriqlari.

*В данной статье говорится проведения занятия на основе третьего цикла образовательного процесса, также на основе этой технологии проведения занятия по немецкому языку в 6 классе.*

**Ключевые слова:** учебный процесс, один из центрального цикла, обобщение знания, программирование задания, тренировка, система знаний, учебные задания.

*In this article the third phase of the learning process, the lessons learned, and the use of this technology during the 6th grade German language classes are analyzed.*

**Keywords:** education stages, educational process, one of the central stages, summarizes knowledge, programmed tasks, training, knowledge system, learning tasks.

**Kirish.** Pedagogik texnologiyada ta'limning davriyligi markaziy muammolardan hisblanadi. Ta'lim jarayoni davrlarini o'rganish, ularni ajratish me'zonlarini aniqlash, bir davrni keyingisidan farqlash yo'llarini ishlab chiqish, shuningdek, o'quv ishlari davrlarin qat'iy chegaralash qator yutuqlarga olib keladi, har bir davr uchun yaroqli ta'lim vositalari tanlash va qo'llash imkoniyati kengayadi. Ta'lim jarayoni to'rtta davrga ajratilgan ekan, bir davrdan ikkinchi davrga o'tgan sari o'quvchilar o'zlashtirish o'rtasidagi vorislik, ya'ni o'zlashtirilgan va endi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlanadi, u yoki bu o'quv materialini to'liq o'zlashtirish uchun zaruriy takrorlash chegarasi aniqlanadi, ta'lim jarayonining optimal kechishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

**Asosiy qism.** Ta'lim jarayoni davrlari nima? Ta'lim jarayonida to'rtta davrni farqlash mumkin. Ta'lim akti - ta'lim jarayoning eng kichik birligidir. Ta'lim akti ta'lim jarayoni kategoriyasi kontekstida organiladigan, tahlil qilinadigan eng kichik birlikdir. Uni yana bundan keyin kichik birliklarga ajratib tahlil qilish mumkin emas. Shunday qilinganda ta'lim akti o'zining didaktik mohiyatini yo'qotib psixologiyada va fiziologiyada o'rganiladigan hodisaga aylanadi. Ta'lim akti ta'lim bosqichi tarkibida amal qiladi. Ta'lim aktining shu xususiyatni hisobga olib, uni ta'lim jarayonining genetik hujayrasi sifatida ajratamiz. Biz ta'lim jarayoni aktini ta'lim jarayonining genetik hujayrasi sifatida ajratamiz, uning vositasida ta'lim jarayoni bosqichlarini, so'ngra ta'lim jarayoni davrlarini sharhlaymiz. Ta'lim bosqichlari ta'lim aktlarga nisbatan yirik birlikdir, ya'ni ta'lim bosqichi ikki va undan ortiq ta'lim aktlarining yig'indisidan hosil bo'ladi. Ta'lim jarayoni bosqichlarida ham ta'limning maqsadi hal qilinadi. Ta'lim jarayoni bosqichlari bilimlarni o'rganish, malakalarni shakllantirish va xotirani rivojlantirish, bilish jarayonining ichki resurslarini motiv, emotsiya, qiziqishlarini rag'batlantirish davom ettiriladi. Ta'lim jarayoni bosqichlari ta'lim jarayoni aktlarining mexanik yig'indisi bo'lmay, aksincha ta'lim jarayoni aktlari rivojidadagi hosila birligidir. Ta'lim jarayoni boshlanishi ta'lim aktlarida, davomiyligini ta'lim jarayoni bosqichlarida, yakunlanganligini esa ta'lim jarayoni davrlarida ko'ramiz. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ta'lim jarayoni o'zaro daxldor, bir-birni to'ldiradigan va taqozada etadigan aktlarning bosqich, davr shakllardagi harakatidir. Ta'lim jarayoni davrlari ikki va undan ortiq ta'lim jarayoni bosqichlarining yig'indisidan hosil bo'ladi. Ta'lim jarayoni akti va ta'lim jarayoni bosqichi o'rtasidagi farqni - ularning birinchisida psixologik mohiyatning ustunligini, ikkinchisida esa didaktik mohiyatni ustunligini ko'ramiz.

O'qish va o'qitish maqsadlarini ta'limning akt, bosqichlarida o'zaro tutashgan ko'rinishlaridan, o'qish vositasi va o'qitish vositasining bir-biri bilan muvofiqlashishidan, didaktik hodisalarning amal qilish yo'li bilan erishilgan natijalardan kelib chiqib ta'lim jarayoni davrlarini farqlash mumkin.

Ta'lim jarayonining dastlabki davri ya'ni birinchi davri o'rganilayotgan mavzu doirasida axborotlar to'plash bilan xarakterlanadi. Axborot to'plash yo'li bilan ongda o'rganilayotgan obyekt (mavzu) timsoli paydo bo'ladi. Ta'lim jarayonining birinchi davrida asosan muammo, mustaqil ish, ijodiy ish va ijodiy xarakterdagi o'quv namunalardan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonining ikkinchi davrida oldingi mashg'ulotda o'rganilgan bilim, faoliyat usullarini ongli esga tushurish, esga tushirilgan bilimlarni amalda tatbiq etiladi. Ta'lim jarayonining ikkinchi davrida

**#6, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL**

bilimlarni takrorlash, malaka hosil qilish davrida ijodiy va noijodiy mashqlar, trening, dasturlashgan materiallardan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonining markaziy davrlaridan biri o'rganilayotgan mavzular doirasida bilimlarni umumlashtirishdir. Bilimlarni umumlashtirish darajasida dasturlashgan materiallardan, trenirovkaga mo'ljallangan topshiriqlardan, o'tilgan mavzular mazmuniga teng keladigan munozara savollardan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonining uchinchi davri ikki va undan ortiq mavzu yuzidan o'tkaziladi. Bu davrda o'rganilgan bilimlar ma'lum tizimga keltirilib umumiy xulosalar chiqariladi. Mohiyati jihatidan uchinchi davr natijasi tushunchaga mos keladi. Bolalar o'rganilayotgan yangi tushunchani oldin o'zlashtirilagan tushunchalardan ajratish, farqlay olish darajasiga yetib kelishadi.

Ta'lim jarayonining uchinchi davrida bilim malakalarni umumlashtirish jarayonida ikki va undan ortiq mavzu doirasida tushunchalarni o'zaro taqqoslash va shu yo'l bilan umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni aytilgan yoki berilgan o'quv soatlariga tatbiq qilish, ta'lim natijasini tekshirishga oid o'quv maqsadlari yotadi. Shu maqsadlarga binoan uchinchi davrda to'rtta asosiy bosqichga rioya qilinadi. Tushuncha prinsiplarni taqqoslash [1], taqqoslash yo'li bilan yangi, umumiy xulosalar chiqarish [2], chiqarilgan xulosalari o'quv yumushlariga tatbiq etish [3], ta'lim natijasini tekshirish [4].

O'quv topshiriqlarining bu turlari o'zining murakkabligi, ikki yoki undan ortiq mavzu doirasida tashkil etilishi, mavzular yoki bo'lim yuzasidan umumiy xulosa chiqarishga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Ta'lim jarayonining 3-davrida - bilimlarni umumlashtirish davrida bolalarning o'quv yumushlari yanada murakkablashtirilgan shaklda tashkil etiladi. Shu maqsadda o'tilgan mavzular doirasida dalillarni chog'ishtirish mavzular mazmunini kengaytirib yoki qisqartirib so'zlash, ijodiy mustaqil ishlarni bajarish, o'rganilgan mavzularga annotatsiya yozish, muataqil xulosalar chiqarish kabi o'quv ishlari tashkil etiladi. Ta'lim jarayoni davrlariga rioya qilib o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda bolalarning o'quv ishlari muttasil murakkablashtirib boriladi. Bunday taktika ta'lin jarayoni samaradorligini ta'minlaydi.

**Muhokamalar va natijalar.** Misol uchun 6-sinf nemis tili darslarida o'quvchilariga mo'ljallab "Verben sein und haben im Prateritum, Bildung das Partizip 2, Perfekt mit haben" mavzularini, ya'ni ikkita mavzuni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishni ko'rib o'tamiz. Eng avvalo o'quvchilarga 22-25 gapdan iborat matn havola qilinadi. Matndan Imperfekt (fe'ning o'tgan zamon sodda shakli)ga iod va Partizip 2 (fe'ning sifatdosh 2)ga oid gaplarni ajratish uchun o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. O'quvchilar gaplarni ajratadilar. Ajratilgan gaplar asosida o'quvchilarga grammatik qoidaga ta'rif berish taklif qilinadi. Masalan, nemis tilida Imperfekt fe'ning o'tgan zamon sodda shakli bo'lib u, asosan ertak, hikoya, romanlarda qo'llaniladi. Imperfekt ikki usul bilan yasaladi va hokazo. Shuningdek, Partizi 2ga ham ta'rif beriladi. Partizip 2 fe'l o'zagiga ge - old qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Schreiben –geschrieben, lesen-gelesen va hokazo. "Verben sein und haben im Prateritum, Bildung das Partizip 2, Perfekt mit haben" qoidalari bo'yicha tuzilgan dasturlashtirilgan topshiriqni keltiramiz.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib, tariflarni to'ldirib yozing.

A. Nemis tilida fe'ning 3 asosiy shakliga ko'ra sein, haben yordamchi fe'llari Imperfekt (fe'ning o'tgan zamon sodda shaklida quyidagicha... tuslanadi.

B. Nemis tilida Partizip 2 (Sifatdosh 2) qo'yidagicha... yasaladi.

D. Haben yordamchi fe'li quyidagi hollarda... Perfekt (fe'ning o'tgan zamon qo'shma shakli)da qo'llaniladi.

2-torshiriq. Jadvalni davom ettirib to'ldiring. Verben sein und haben im Prateritum	Bildung das Partizip 2	Perfekt mit haben
1.I hatte einen Freund. Eswardunkel.	1. Gehen-gegangen. machen – gemacht.	1. Wir haben eine Kontrollarbeit geschrieben.
2.....	2.....	2.....
3.....	3.....	3.....

Topshiriqni bajarish shu tarzda davom ettiriladi.

3-topshiriq. Yuqoridagi qoidalardan foydalangan holda In der Sommerferien (Yozgi ta'tilda) mavzusida matn tuzing. Masalan, Ich habe die Ferienzeit fast zu Hause verbracht - deb bashlanadi.

4-topshiriq. Tuzilgan matnni boshqa o'quvchilarga so'zlab bering, boshqalarni matnini tinglang va tahlil qiling.

Yuqoridagi topshiriqlarning to'rttalasi ham umumlashtirish xarakteridagi o'quv yumushlari bo'lib, ular bo'yicha amalga oshiriladigan o'quv ishlarining hajmi mashqdan kengdir. 1-topshiriqni bajarish jarayonida uchta ta'rif-qoida esga tushiriladi. 2-topshiriq esa esga tushirilgan ta'rif-qoidaga rioya qilib, og'zaki va yozma

## **#6, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL**

nutqni rivojlantirishga qaratilgan, ya'ni mo'ljallangan. 3-topshiriq vositasida o'rganilgan o'quv materiallari, ya'ni tarif-qoidalar asosida mustaqil fikrlash faolitada ishlatiladi. 4-topshiriq asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, tahlil qila olish qobiliyatiga qaratiladi.

Trenirovkaga mo'ljallangan o'quv toshiriqlarini ham umumlashtirish tarzida tuzsa bo'ladi. Misol tariqasida tuzilgan trenirovka materiallarni to'rta mavzu doirasida keltiramiz

1. Trenirovka – bu bir xil mazmunni, shu mazmunga oid faoliyat usulini bir xil (o'xshash) sharoitda takrorlashdir. Uning mohiyati kishida u yoki bu layoqatni rivojlantirish maqsadida xatti-harakatlarni takrorlashdir [1].

1. Qavs ichidagi so'zlar (die Kuhe, die Katze, der Hund, der Wolf, der Fuchs, der Bar, der Elefant, der Tiger, der Lowe)ni qaysi mavzuga oid ekanligini aniqlang (Tier namen-Hayvon nomlari).

2. Familien angehorige – mavzusiga oid 20 ta so'zni 3ta rodga ajrating.

3. Freizeit (Bo'shvaqt) mavzusida insho yozing.

4. Im Winter (qishda) va im Sommer (yozda) mavzulari yuzasidan bahs-munozara, suhbat o'tkazing.

Yuqoridagi mavzular orqali va vositasida umumlashtiruvchi o'quv topshiriqlarining qator xususiyatlarini qayd etamiz. Umumlashtiruvchi o'quv topshiriqlari o'rganilayotgan o'quv materiallari mazmuniga teng.

O'quvchilarning analitek-sintetik faoliyatini tashkil etish talablariga mos ikki va undan ortiq mavzular doirasida o'rganilgan bilimlarni takrorlash ongda shakllangan bilimlar tizimini amaliyotda qo'llash omili vazifasini bajaradi. Bu ko'rinishdagi o'quv topshiriqlaridan va ularga oid mashqlardan, o'quv materiallaridan ta'lim jarayonining uchinchi davri - bilim, malakalarni umumlashtirish davrida foydalaniladi.

**Xulosa** o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim jarayoni davrlariga mos ravishda dars mashg'ulotlarini olib borish pirovard natijasida o'qituvchi va o'quvchilarni ko'zlangan maqsadga olib baradi. Yani o'quv materiallarni taqqoslash va umumlashtirish orqali ko'zlangan natijaga erishiladi. Bular yuqoridagi fikrlarimiz orqali o'z isbotini topdi. Xususan ta'lim jarayonining uchinchi davriga mos 6-sinflarda nemis tili darslarining o'tilishining yuqorida qayd etilganligi bunga yorqin misol bo'la oladi. Ikkita mavzu, ya'ni "Imperfekt (fe'lnining o'tgan zamon sodda shakli)" mavzusi va "Partizip 2 (Sifatdosh 2)" mavzusiga oid dars mashg'uloti olib birilganda o'quvchilarda o'zaro qiyoslash, taqqoslash, umumiy xulosalar chiqarish xususiyatlari rivojlana boshlaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Roziqov O. va boshqalar. Ta'lim texnologiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1999. 71-bet.
2. Qahorov. S. Umumiy o'rtat a'lim maktablarida fizika o'qitishni davriy tashkil etish texnologiyasi. – Buxoro, 2004. -158 b.
3. Suxanova N. va boshqalar. Assalom, Deutsch. 6-Lehrbuch. -Toshkent, 2005. -63 b.
4. Ruziyev Muxtor Qayumovich. Periods oft he educational process. Central Asian Journal of Theoretichal and Applied Sciencses.2021. 195-201 b.
5. Muxtor Ro'ziyev. Didaktik hodisalar tizimiga zamonaviy yondashuv. Pedagogik Mahorat jurnali. 2020. 99-102 b.
6. Ro'ziyev Muxtor Qayumovich. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixologik imkoniyatlari. Psixologiya jurnali. 2020-y. 50-52 b